



15.12.2022 даги

Bukhara best buildings МЧЖ ва **Коракул туман Махалла ва оилани куллаб қувватлаш бўлими** ўртасида
219921040,00 сўм умумий суммага тузилган 13-2-37-MNQ/2022 - сонли шартномага

ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ*

Боб _____ 199 _____
Шахсий ғазна ҳисобварақ _____ 100022860062307016801199007 _____

2022 й. ойлар номи.	Харажатлар тури** (бюджет таснифининг тегишли коди)			сўмда
	4321200			Жами
Январь				
Февраль				
Март				
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь	219 921 040,00			219 921 040,00
Жами йил бўйича	219 921 040,00			219 921 040,00

Жами 219921040,00 сўм

Икки юз ўн тўққиз миллион тўққиз юз йигирма бир минг қирк
сўм 00 тийин
сумма сўз билан

Юқоридаги кўрсатилган суммадан 65976312,00 сўм ёки 30,00%*** шартноманинг умумий суммасидан
70 % ***2022 декабр ойида тўланиши лозим.

(*) — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан ғазначилик бўлинмасига икки нусхада тақдим этилади;

(**) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(***) — Юқоридаги кўрсатилган суммадан ойига _____% жорий ойнинг _____ санасигача ҳар ойда олдиндан тўланиши лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар кўрсатиш, алоқа хизматлари ва қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳар ой доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш ҳолларида тўлдирилади).

Буюртмачи раҳбари

М.Ў



Рахимов Садриддин Хайридинович
Ф.И.Ш.

Буюртмачи бош бухгалтери

Кўчқоров Ўқтам Хасан ўгли
Ф.И.Ш.

Ғазначилик бўлинмасининг
ходими қабул қилди

(имзо)

Буюртмачи ходими
қабул қилди

(имзо)

«__» _____ 20__ й.

«__» _____ 20__ й.

Қурилиш пудрат шартномаси

15«12»2022 yil.

13-2-37-MNQ/2022_{son}

«BUXARA BEST BUILDINGS» МСНҲ масъулияти чекланган жамияти (ташкилот, корхона номи) (кейинги ўринларда "Пудратчи" деб юритилади) номидан ўзининг **низоми** (низоми, устави, ишончнома) асосида иш юритувчи **Ф.Қурбонов** (вазифаси, фамилияси, исми) тимсолида, бир томондан ва **Қорақўл туман Маҳалла ва нурунийларни қўллаб-қувватлаш бўлими** (корхона, ташкилот, муассаса номи), (кейинги ўринларда "Буюртмачи" деб юритилади) номидан ўзининг **низоми** (низоми, устави, ишончнома) асосида иш юритувчи **С.Рахимов** (вазифаси, фамилияси, исми) тимсолида, иккинчи томондан мазкур шартномани куйидагилар ҳақида туздилар.

Мазкур хизматлар давлат харидларининг махсус ахбарот порталида № 22110012203939 лот рақам билан эълонга жойлаштирилиб томонлар келишувида имзоланди.

1. ШАРТНОМАНИНГ ПРЕДМЕТИ

1.1. Ушбу шартнома буйича "Пудратчи" «Буюртмачи»нинг буюртмасига асосан **Қорақўл туман Мустақиллик МФЙ биносини қурилиш ишларини** олиб бориш (жой ва бажариладиган ишлар номи) ва тузилган лойиҳа смета ҳужжатларига асосан таъмирлаш (жорий капитал) ишларини бажаришни, «Буюртмачи» эса бажарилган ишларни қабул қилиб олишни ҳамда тўловни амалга оширишни ўз зиммаларига оладилар.

1.2. Ушбу шартноманинг умумий суммаси 219 921 040 (икки юзи ўн тўққиз миллион тўққиз юз йигирма бир минг қирқ) сўмни ташкил этади.

2. ШАРТНОМА БУЙИЧА КЕЛИШУВ НАРХЛАР

2.1. «Буюртмачи» томонидан тақдим қилинган ҳужжатларга асосан таъмирлаш ишларининг қиймати 219 921 040 (икки юзи ўн тўққиз миллион тўққиз юз йигирма бир минг қирқ) сўмни ташкил қилади.

2.2. Шартноманинг умумий суммасидан 219 921 040 (икки юзи ўн тўққиз миллион тўққиз юз йигирма бир минг қирқ) сўмни ташкил этади ҳамда ушбу қурилиш ишларини молиялаштириш маҳаллий бюджет маблағлари ҳисобидан молиялаштирилади.

2.3. Таъмирлаш ишларининг бошланиши 30% олдиндан тулов амалга оширилгандан кейин бошланади.

2.4. Таъмирлаш ишларининг тугаши вақти «31» декабр 2022 йил.

3. ТАЪМИРЛАШ ИШЛАРИНИ БОШЛАШ, БАЖАРИШ ВА ТУГАТИШ БУЙИЧА ШАРТНОМАВИЙ МУДДАТЛАР

3.1. Таъмирлаш ишларини бажариш муддати мазкур шартноманинг 2.4. бандида кўрсатилган муддатгача амалга оширилади.

3.2. «Буюртмачи» томонидан таъмирлаш ишларини бажариш даврида «Пудратчи»га ўзи томонидан харид қилинган таъмирлаш материалларини тақдим қилиши мумкин.

3.3. Таъмирлашни тўхтаб қолганлиги учун сабабчи бўлган томон бунинг оқибатида келиб чиқадиган ҳар қандай камомад ёки жавобгарликни ўз зиммасига олади.

3.4. Таъмирлашни тугаллаб фойдаланишга топшириш учун тузилган комиссия далолатномаси тасдиқлангандан сунг таъмирлаш ишлари тамом бўлган деб ҳисобланади.

4. ТЎЛОВ ШАРТИ ВА ТАРТИБИ

4.1. Ушбу шартноманинг умумий нархи ҚҚС билан 219 921 040 (икки юзи ўн тўққиз миллион тўққиз юз йигирма бир минг қирқ) сўмни ташкил этади. сўмни ташкил этади.

4.2. «Буюртмачи» таъмирлаш ишларини бошлаш учун «Пудратчи»га шартнома нархининг 30% ёки 65 976 312 сўм миқдорда олдиндан тўлайди ва бу олдиндан тўлов 2022 йилнинг Декабр ойида амалга оширилади. «Буюртмачи» томонидан якуний тўлов «Пудратчи» ишлар бажарилганлигини тасдиқловчи ҳужжат тақдим қилгандан сўнг амалга оширилади. Якуний тўлов 70% нинг миқдори 153 944 728 сўм бажарилган ишлар ҳажми (Форма 5) га асосан ташкил этади ва бу якуний тўлов 2022 йил «31» декабргача амалга оширилади.

4.3 «Буюртмачи» тўловни пул ўтказиш йули билан амалга оширади.

4.4 «Пудрат» ташкилоти томонидан шартномада кўрсатилган суммадан ошикча бажарилган ишлар учун «Буюртмачи» томонидан тўловлар амалга оширилмайди.

5. ПУДРАТЧИНИНГ МАЖБУРИЯТЛАРИ

5.1 Шартнома баҳоси 219 921 040 (икки юзи ўн тўққиз миллион тўққиз юз йигирма бир минг қирқ) сўм бўлган таъмирлаш ишлари юқорида келишилган муддатда тугатиш ва фойдаланишга топшириш.

5.2 Махсус таъмирлаш ишларини бажариш учун махсус ёлланма пудратчи ташкилотларни жалб қилади.

5.3 Ҳар ҳафтанинг душанба кунида жорий ҳафтада бажарилган таъмирлаш монтаж ишлари тўғрисидаги тегишли ҳужжатларни «Буюртмачи»га тақдим қилиши шарт. Агар таъмирлаш мазкур шартномада кўрсатилган муддатда пудратчининг айби билан фойдаланишга топширилмаса, у ҳолда буюртмачига қуйидаги тартибда жарима тўлайди:

- таъмирлаш муддати 10 кунга кечиктирилса, шартнома баҳосидан 0,5 % миқдорида;

- кейинги 20 кун учун шартнома баҳосидан 5 % миқдорида;

- ундан кейинги муддатлар учун 20 % миқдорида;

Жарима санкцияси буюртмачи томонидан билдирилган ёзма равишдаги даъводан кейин 10 кун муддат мобайнида тўланиши шарт.

5.4 Пудратчи шартномада назарда тутилган маблағ доирасида ишларни бажаради ва шунга мувофиқ бажарилган ишлар тўғрисида 2-сонли далолатномани тузади.

6. БУЮРТМАЧИНING МАЖБУРИЯТЛАРИ

6.1 Мазкур шартнома имзоланган кундан 2022 йил «31» декабргача амалда бўлади.

6.2 Мазкур шартнома икки нусхада тузилиб, бир хил юридик кучга эга бўлиб ҳисобланади ва томонларнинг ҳар бири учун бир нусхадан берилади.

7. ТОМОНЛАР ЎРТАСИДА ШАРТНОМАВИЙ НИЗОЛАРНИ ҲАЛ ЭТИШ

7.1. Ушбу шартнома асосида келиб чиқадиган ҳар қандай низолар Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонунчиликлари талабларига асосан хўжалик судларида ҳал этилади.

8. ШАРТНОМАНИНГ ҚОНУНИЙ КУЧГА КИРИШИ

8.1 2014 – йил 1 – Январдан амалга киритилган Ўзбекистон Республикаси «Бюджет кодекси» нинг 122 – моддаси ҳамда бюджет ташкилотларининг товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб берувчилар билан шартномалари, шунингдек буюртмачиларнинг Давлат бюджети маблағлари ҳисобига капитал қурилишга оид шартномалари мажбурий тартибда Ҳазначиликда рўйхатга олинishi шартлиги ва фақат у амалга оширилгандан кейин кучга кириши назарда тутилган.

9. Коррупцияга қарши қондаларнинг асосий шартлари

9.1 Томонлар шартнома бўйича ўз мажбуриятларини бажараётганда Ўзбекистон Республикасининг коррупцияга қарши курашиш тўғрисидаги қонун ҳужжатларининг талабларига зид келадиган ҳар қандай ҳаракатларни амалга оширмайдилар, шу жумладан пора, яъни маҳалла бўлими ходими ўз хизмат мажбуриятларидан фойдаланган ҳолда пора берган шахснинг мафаатларини кўзлаб муайян ҳаракатларни содир этиши ёки содир этмаслиги шартлиги ёхуд мумкинлиги учун моддий қимматликларни ёки мулкый наф олиш учун қуйидаги ҳаракатларни қилмайди:

пора таклиф қилиш ёки ваъда бериш;

товламачилик қилиш;

пора сифатида тўлаш;

бевосита ёки билвосита пора олишга розилик бериш.

9.2 Томонлар ушбу ҳаракатларга йўл қўймаслик бўйича чоралар қўрилишига қафолат беради.

9.3 Агар томонлар шартнома бўйича ахлоққа тўғри келмайдиган ва ушбу шартнома ёки Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги ҳужжатларига зид келадиган хатти-ҳаракатларига, шу жумладан, коррупцияга оид ҳуқуқбузарлик содир этишга мажбурлашдан иборат бўлган фактларга дуч келса, бу ҳақда қуйидаги алоқа каналларидан бири орқали хабардор қилиши керак:

коррупция ҳақида хабар беришга мўлжалланган ишонч телефони;

Телеграм канали;

давлат органи ёки ташкилотининг коррупцияга қарши ички назорат тузилмасининг хизмат телефон рақамига ёки шахсан Маҳалла бўлими ижтимоий тармоқдаги манзилларига хабар қилиши лозим.

ТАРАФЛАРНИНГ РЕКВИЗИТЛАРИ:

«Пудратчи»

«BUXARA BEST BUILDINGS» MCHJ

(Товар етказиб берувчи ёки хизмат кўрсатувчининг номи)

Манзил: Бухоро шаҳар Алпомиш кўчаси 176/6-уй 43 хона

Тел./факс 90-612-55-77

х/в 20208000800952973001

Банк номи БУХОРО Ш., "ҚИШЛОҚ ҚУРИЛИШ БАНКИ" ОФИСИ

МФО 01037

ОКОНХ 11170

«Буюртмачи»

Қорақўл туман маҳалла ва нуронийларни қўллаб-қувватлаш бўлими

(бюджетдан маблағ олувчи ташкилотнинг номи)

Манзил: Қорақўл тумани Хўжалар МФЙ

Тел./факс 65-56-53-0-51

шхв 100022860062307016801199007

бюджетдан маблағ олувчи СТИРи 207317345

ОКОНХ 84112

Ҳазначилик бўлини маси номи: Қорақўл туман

СТИР 305894934

Газначилик бўлинмаси
Ғазна х/в: 23402000300100001010
Банкнинг номи: Тошкент шаҳар Марказий
банкнинг ХККМ
МФО: 00014

Раҳбар

Ф.Курбонов
(Ф.И.Ш)

(имзо)


М.Ў.

Газначилик бўлинмаси СТИРи: 201122919

Раҳбар (лавозим) С.Рахимов
(Ф.И.Ш)

(имзо)

М.Ў.

	Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	SADRIDDIN RAHIMOV XAYRIDDINOVICH
	Imzolangan sana	15.12.2022 12:46
	Hujjat kodi	GH8075856381
	Hulosa kodi	GS0726512168

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUIJATLARNING QONUN
HUIJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

GS0726512168

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Pudrat shartnomasi**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Qorako‘l tumani Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi tomonidan 14.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Qorako‘l tumani
yuridik markazi
bosh yuristkonsulti:**



A.N.Raxmonov

15.12.2022



№ 5035-5163-5654-5e21-5c89-8600-3599
Хужжат яратилинган сана: 2022-10-24
Ариза рақами: 61307405

Хужжат берилган: "QORAKO`L TUMAN MAHALLA VA
NURONIYLARNI QO`LLAB-QUVVATLASH BO`LIMI"
DAVLAT MUASSASASI
СТИР: 207317345

**АРХИТЕКТУРА-РЕЖАЛАШТИРИШ
ТОПШИРИҒИ**

24.10.2022 14:01 й.
1706-1706230-52902 -сон

Лойиҳавий бино (иншоот) тури:	"Mahalla" binosi qurilishini loyihalashtirishga
Лойиҳавий бино (иншоот)нинг манзили:	Qorako'l tuman Mustaqillik MFY
Лойиҳавий бино (иншоот)нинг буюртмачиси:	"Qorako'l tuman mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi" DM

Ушбу архитектура-режалаштириш топшириғи фақат лойиҳалаштириш ишларини амалга ошириш учун ҳуқуқий ҳужжат ҳисобланиб, қурилиш-монтаж ишларини бошлашга асос бўла олмайди. Қурилиш бош бошқармасининг манзили ва телефон рақамлари: Buxoro shahar A.Navoiy shox ko'chasi 5-uy, tel: 223-90-03

#	Архитектура-режалаштириш топшириқларининг қисмлари	Қисмларнинг мазмуни
1	Архитектура-режалаштириш топшириқларини ишлаб чиқиш учун асос бўлган ҳужжатлар	Qorako'l tuman Davlat xizmatlari markazining 2022 yil 3 oktabrdagi 61307405-sonli elektron arizasi; Buxoro viloyat hokimining 2022 yil 10 sentabrdagi 467-2-0-Q/22-sonli qarori;
2	Лойиҳалаштириладиган бино ва иншоот (кейинги ўринларда объект деб аталади) ер участкасининг жойлашиши ва бош режада тутган ўрни	Qorako'l tuman Mustaqillik MFY hududidan "Mahalla" binosi qurilishini loyihalashtirish uchun ajratilgan 0.04 ga yer maydoni aholi punktida joylashgan.

3	<p>Лойиҳалаштириладиган объект ҳудудининг табиий-иклим кўрсаткичлари</p>	<p>Qorako'l tuman iqlim sharoiti: tez o'zgaruvchan keskin kontinental zona. Yoz oylarining yuqori darajaligi, quruqligi va yog'ingarchiligining ozligi bilan ta'riflanadi. Yog'ingarchilik asosan qish, bahor va kuz mavsumlarida yog'adi. Yoz paytidagi eng issiq harorat (absolyut maksimum) + 47 C0. Qish paytidagi eng sovuq harorat (absolyut minimum) - 26 C0 gacha Havoning namlik darajasi: Yog'ingarchilik o'rtacha yillik miqdori 28 mm dan 188 mm gacha tashkil etadi. Shamol yo'nalishi: shimoldan -janubga. Shamol tezligi: yillik o'rtacha miqdori 4,0-4,5m/sek dan 15-20 m/sekga yetishi xam mumkin. Yil davomida ochiq ob-havo kunlari ko'proq. Hududdagi zilzila kuchi: QMQ 2.01.03-96 ga asosan 7 balli hududlar mintaqasiga kiradi. Zilzilaga qarshi choralar: QMQ 2.01.03-96ga talablariga asosan amalga oshirilsin. Yer sathining muzlash chuqurligi: 0,6 m</p>
4	<p>Лойиҳалаштириладиган объект ер участкасининг геологик ва топографик жиҳатдан ўрганилганлиги</p>	<p>Qurilishi rejalashtirilgan bino-inshoot chegaralari hududning ilova qilingan 1:500 miqyosdagi topoxaritasida belgilab berilgan.</p>
5	<p>Лойиҳалаштириладиган объект ер участкасининг чегаралари ҳамда унга туташ объектлар ёки ер участкалари тўғрисида маълумот</p>	<p>Loyihalashtirish uchun ajratilgan umumiy 0.04 ga yer maydoni quyidagicha chegaralangan: Shimol tomondan: Masofa orqali sport maydoni bilan; Sharq tomondan: Avtomobil yo'li bilan; Janub tomondan: Mavjud bino bilan; G'arb tomondan: Bo'sh yer maydoni bilan;</p>
6	<p>«Қизил чизиқлар ва белгилар»</p>	<p>Obyekt yer uchastkasining tasdiqlangan chegaradan chiqmasdan, qurilish chiziqlariga amal qilgan holda loyiha ishlarini olib borilishi ta'minlash.</p>


7	Архитектура талаблари	Loyihani ishlab chiqishda: a) shaharsozlik normalari va qoidalariga amal qilish; b) ko'chasining tasdiqlangan bosh rejasiga va uning tegishli qismining batafsil rejalashtirish loyihasiga qat'iy rioya etib, obyekt atrofidagi mavjud binolarga bog'langan holda yagona arxitektura ko'rinishini tashkil etish lozimligini inobatga olish; v) obyektни rekonstruksiya qilish loyihalarini ishlab chiqishni boshlashdan oldin ayrim holatlarda (buyurtmachining talabiga binoan yoki tashqi ko'rinishidan avariya holatining alomatları mavjud bo'lganda) tegishli litsenziyaga ega bo'lgan loyiha va boshqa tashkilotlarning obyektning holati bo'yicha xulosasini olish; g) ushbu ARTga muvofiq buyurtmachi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, alohida muhim obyektlar bo'yicha viloyat qurilish bosh boshqarmasi bilan kelishilgan loyiha topshiriqlariga, 1:500 nisbatdagi topoxaritada tasdiqlangan chegaralarga amal qilish; d) obyektning 1:500 nisbatdagi bosh rejasini loyihalashtirishda loyiha tashkiloti tomonidan ixtisosi o'zgarayotgan va rekonstruksiya qilinayotgan bino joylashtirilgan hamda obyekt atrofiga obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari aks ettirilgan, obyektga kirish-chiqish yo'llari va avtomobillar to'xtash joylari tashkil etilishi nazarda tutish; e) ob'ektning qavatlıligi loyiha asosida; j) ob'ektda quyidagi kichik arxitektura shakllari o'rnatilishi nazarda tutilsin: Loyihalashtirishda "O'zbekiston Respublikasi Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni talablariga asosan turar-joy hamda jamoat binolari hududlarida nogironlar uchun qulayliklarni ta'minlash va ularning ehtiyojlari va xususiyatlari inobatga olinsin. Ob'ektning bosh rejasini loyihalashda atrofidagi binolardan transport, sanitariya, yong'in xavfsizligi muhofaza zonaları ko'cha qizil chizig'ini hisobga olgan holda tegishli ShNK normalari bo'yicha ishlansin. Quyosh tushuvchi eshik va derazalarga soyabonlar o'rnatilsin, soyabonlar uchun milliy arxitekturamizda qo'llaniladigan elementlardan ko'p jihatda foydalanilsin. Binolar zamonaviy, sifatli, issiq va sovuqqa chidamli qurilish materiallaridan foydalanilsin. transporti yordamida bajarilsin. Loyihalashtirishda quyidagi va amaldagi me'yoriy hujjatlarga qat'iy rioya qilinsin: SHNQ 2.07.01-03* Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishni rejalashtirish. SHNQ 1.03.07-2010 Qurilishda mualliflik va texnik nazorat to'g'risida nizom. SHNQ 2.01.02-04 Bino va inshootlarida yong'in xavfsizligi. San Pin 0350-17 Sanitariya qoida va meyorlari. QMQ 2.01.03-96 Zilzilaga qarshi choralar.
8	Лойиҳалаштириладиган объект ер участкасида мавжуд бино ва иншоотларни бузиш ёки фойдаланиш бўйича таклифлар	Loyihachining loyiha topshirig'iga muvofiq: a) qurilish uchun ajratilgan yer uchastkasida buzilishga tushadigan bino va inshootlarga aniqlik kiritish; b) qurilish uchun ajratilgan yer uchastkasida mavjud bino va inshootlardan foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. Loyihalashtirish ishlarini boshlashdan oldin hududdagi noqonuniy qurilmalar to'liq bartaraf qilinishi lozim.
9	Объектни босқичма-босқич қуриш	Qurilishning murakkabligiga va buyurtmachi tomonidan beriladigan loyiha topshirig'iga muvofiq qurilishni bir bosqichda olib borish va foydalanishga topshirish jarayonlari nazarda tutish.
10	Ер майдонини ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштириш	Loyihaning obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish qismida quyidagilar inobatga olinadi: a) obyekt joylashadigan hududda iqlim sharoitlarini inobatga olgan holda manzarali daraxtlar, butalar va gullar ekish; b) tegishli hududlari ko'kalamzorlashtirilganligi; v) landschaft arxitekturasining yechimlaridan foydalangan holda daraxtlarning qanday shakllarda bo'lishi; g) mavjud ko'p yillik daraxtlarning saqlanib qolishi.

11	Санитария-гигиена талаблари	a) loyihalashtirishda sanitariya-gigiyena talablariga rioya etish; b) loyihalashtirish jarayonida qurilish materiallari turlarini belgilashda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan taqiqlanmagan va sanitariya-gigiyena talablariga javob beradigan qurilish materiallaridan foydalanilishi shartligi ko'zda tutish; v) obyekt qurilishi uchun tanlangan yer maydonidan oqib o'tuvchi kanal yoki ariq mavjud bo'lgan taqdirda, loyihdagi suv yo'nalishi hamda suvning muhofaza zonalarini saqlash va qirg'oqlarni obodonlashtirish va mustahkamlash ishlari loyihalashtirish jarayonida inobatga olish.
12	Ёнгиндан сақланиш талаблари	Obyekt "Binolar va inshootlarning yong'in xavfsizligi" ShNQ 2.01.02-04 ga asosan loyihalashtirish.
13	Экология талаблари	Vazirlar mahkamasining 2019 yil 17 yanvardagi 43-sonli qarorining 4 bob 35-46 bandlariga asosan hamda 15-ilova 12-bandida nazarda tutilgan (Daraxtlar va butalarni kesishga binolar, inshootlar, kommunikatsiyalar va boshqa ob'ektlarni qurish va rekonstruktsiya qilishga, shuningdek, muhandislik tadqiqot ishlarini amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan holatlarda yo'l qo'yiladi. Bunda kesilishi ko'rsatilgan daraxtlar va butalarni Davlat ekologiya qo'mitasi boshqa joyga ko'chirish masalasini ko'rib chiqadi. Agar ko'chirishning imkoni bo'lmasa Davlat ekologiya qo'mitasi organlari tomonidan ruxsatnomalar rasmiylashtiriladi.) Davlat ekologiya qo'mitasidan tegishli xulosa olingandan so'ng Loyihalashtirish hamda Qurilish montaj ishlari boshlansin.
14	Лойиҳани келишиш	Loyihani ARTga muvofiqligi yuzasidan YIDXP yoki Davlat xizmatlari markazi orqali quyidagi idoralar bilan kelishiladi: a) Qurilish vazirligi yoki viloyat qurilish bosh boshqarmasi huzuridagi hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashi bilan — tarixiy zonalarda, shu jumladan, madaniy yodgorliklarning qo'riqlash zonalarida quriladigan obyektlarning hamda davlat obyektlarining loyihalari; b) Qurilish vazirligi yoki viloyat qurilish bosh boshqarmasi tomonidan — ikki qavatdan yuqori (tsokolni hisobga olmagan holda), balandligi yer yuzasidan 12 metrdan va (yoki) umumiy maydoni 500 kvadrat metrdan ortiq bo'lgan bino va inshootlarning loyiha-smeta hujjatlari; v) tuman (shahar) qurilish bo'limlari tomonidan — ikki qavatgacha (tsokolni hisobga olmagan holda), balandligi yer yuzasidan 12 metrdan past va (yoki) umumiy maydoni 500 kvadrat metrdan kam bo'lgan bino va inshootlarni hamda yakka tartibdagi uy-joylarning loyiha-smeta hujjatlari; Kelishish uchun loyiha-smeta hujjatlarining elektron ko'rinishdagi eskiz loyihasi ilova qilinadi. Ilova qilinadigan hujjatlar PDF yoki JPEG formatda bo'lishi kerak.

<p>15 Қўшимча талаблар</p>	<p>Loyihani kelishish davomida Qurilish vazirligi yoki viloyat qurilish bosh boshqarmasi yoki ular huzuridagi hududiy arxitektura-shaharsozlik Kengashlari yoki tuman (shahar) qurilish bo'limlari tomonidan berilgan tavsiyalar va ekspertiza xulosasida ko'rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish. Qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiq: qurilish jarayonida belgilangan tartibda loyiha tashkiloti tomonidan obyektga mualliflik nazoratini olib borishni ta'minlash; Loyiha-smeta hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish; Davlat qurilish nazorati amalga oshirilishi shart bo'lgan obyektlarda qurilish-montaj ishlarini boshlash uchun obyektning ro'yxatdan o'tkazish. Loyihalashtirish hamda qurilish-montaj ishlarini boshlashdan oldin, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-5742-farmonining 5-bandi 5. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq: sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlari maxsus muhofazaga olinib, ushbu yerlarni qishloq xo'jaligidan boshqa maqsadlarga, shu jumladan sanoat va fuqarolik obyektlari (binolar va inshootlar) qurilishi uchun ajratilishiga yo'l qo'yilmaydi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan ajratiladigan yerlar bundan mustasno; qishloq xo'jaligidan boshqa maqsadlarda foydalanish uchun olib qo'yiladigan sug'oriladigan yerlar uchun kompensatsiya to'lovi, olib qo'yilayotgan yer maydonlari joylashgan joylarni hisobga oluvchi koeffitsiyentlar qo'llanilmagan holda, xuddi shunday yangi yerlarni o'zlashtirish uchun talab etiladigan mablag'ning 10 barobari, lalmi yerlar va sug'orilmaydigan ko'p yillik daraxtzorlar egallagan yerlar, pichanzorlar va yaylovlar holatini tubdan yaxshilash bilan bog'liq xarajatlarning 20 barobari miqdorida hisoblanadi. Bunda sug'oriladigan yerlar uchun kompensatsiya to'lovining 90 foizi, lalmi yerlar va sug'orilmaydigan ko'p yillik daraxtzorlar egallagan yerlar, pichanzorlar va yaylovlar uchun kompensatsiya to'lovining 95 foizi Respublika budjetiga hamda mos ravishda 10 va 5 foizi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar yer resurslari va davlat kadastri boshqarmalarining maxsus hisob raqamlariga o'tkaziladi. Ushbu me'yor o'zboshimchalik bilan yerlarning qishloq xo'jaligi muomalasidan chiqishiga sabab bo'lgan hollarda yetkazilgan zararni hisoblashda ham qo'llaniladi hamda hisoblangan mablag'larning 95 foizi Respublika budjetiga va 5 foizi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi hamda uning hududiy inspeksiyalarining rivojlantirish jamg'armasiga undiriladi; Oldingi tahrirga qarang. sug'oriladigan yerlar hisobidan bog'dorchilik, uzumchilik va boshqa ko'p yillik daraxtzorlar hamda yengil tipdagi issiqxonalarini tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi xulosasiga asosan amalga oshiriladi; (5-bandning oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 8-iyundagi PF-6243-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.06.2021-y. 06/21/6243/0540-son — 2021-yil 1-avgustdan kuchga kiradi) yangi fermer xo'jaliklari va suv iste'molchilari uyushmalari suvdan foydalanish joylarida suvni boshqarish va hisobga olish vositalari bilan majburiy tarzda jihozlash sharti bilan tashkil etiladi; yer maydonlarini foydalanishga kiritish suvni tejovchi texnologiyalardan (tomchilatib, yomg'irilatib, tuproq ostidan tomchilab sug'orish va boshqalardan) foydalangan holda amalga oshiriladi." ijrosini ta'minlash maqsadida yer toifasi bo'yicha tegishli xulosa (Ajratilgan yoki ruxsat berilgan yer uchastkasida qurilish qilish mumkinligi bo'yicha) olinishi shart.</p>
----------------------------	--

Мухандислик тармоқларига уланиш шартлари:

16	Ичимлик сув тармоғи	-
17	Оқава сув тармоғи (канализация)	-
18	Электр тармоғи	-
19	Газ тармоғи	-
20	Телефон алоқа тармоғи	O'zbekiston Respublikasi VMning 1998 yil 15 maydagi "Telekommunikatsiya liniyalari va inshootlarini qo'riqlash qoidalarini" to'g'risidagi 210-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 22 maydagi "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarida telekommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ-4329-sonli qarorlariga qat'iy amal qilinsin;
21	Иссиқлик ва иссиқ сув тармоғи	-
22	Дренаж тармоғи	-
23	Объектни муҳандислик тармоқларига уланиш бўйича буюртмачига ва лойиҳа ташкилотига қўйилаётган талаблар	Obyektни muhandislik tarmoqlariga ulash tartib-taomillarini belgilovchi amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishini ta'minlash. Obyektga ulanadigan yer osti va yer usti muhandislik tarmoqlari unga chegaradosh o'zga yer uchastkasidan o'tkaziladigan holatlarda muhandislik tarmoqlarining trassalari ushbu yer uchastkalari egalari bilan kelishish. Obyektga tegishli yer uchastkasi hududidan o'tgan yer osti va yer usti muhandislik tarmoqlari ko'chirilishi (zarurat bo'lganda) loyihada inobatga olish. Obyektga ulanadigan yer osti muhandislik tarmoqlarini yotqizishda ko'chalarni kesib o'tishni mutasaddi tashkilotlar bilan kelishish.
24	Архитектура-режалаштириш топшириғининг амал қилиш муддати	Ushbu ART berilgan sanadan boshlab ikki yil davomida amal qiladi.



Қорақул Туман Қурбонбеков
 Бошқиси. *[Signature]* И. Валиев
 Кадастр бөл
 мухобадиси *[Signature]* С. Шукуров

						Объект:	№ Договора	
Изм.	Кол.	Лист	№ Док	Подпись	Дата			
Директор	Жураев А.Г.					Стация	Лист	Листов
Нач. парт.						1	1	
						Тахеометрическая съемка		
						Масштаб 1: 500		
						Сист. высот Условная		
						Сечение рельефа через 0.5 м		
Топогр.	Изм.	Галоев Р	<i>[Signature]</i>		ООО "Geoizmereniya klassik"			
Оператор	Изм.	Галоев Р	<i>[Signature]</i>		г. Бухара			2022 г.



АРХИТЕКТУРА-РЕЖАЛАШТИРИШ ТОПШИРИҒИНИ ИШЛАБ ЧИҚДИ:

Архитектура-режалаштириш топшириғини ишлаб чиқиш бўлими раҳбари:	Egamberdiyev Feruz Hamroqulovich
Архитектура-режалаштириш топшириғини тайёрлаган мутахассис:	Ramazonov Maqsud Hoshim og'li

АРТ лойиҳаолди ҳужжат бўлиб, ер участкаси ёки бино ва иншоотга мулк ҳуқуқини тасдиқламайди ҳамда қурилиш-монтаж ишларини бошлаш учун асос ҳисобланмайди.

EGAMBERDIYEV FERUZ XAMROQULIYEVICH

Мазкур ҳужжат Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 15 сентябрдаги 728-сон қарорига мувофиқ Ягона интерактив давлат хизматлари порталида шакллантирилган электрон ҳужжатнинг нусхаси бўлиб, давлат органлари томонидан ушбу ҳужжатни қабул қилишни рад этишлари қатъиян тақиқланади. Ҳужжат ҳақиқийлигини gero.gov.uz веб-сайтида ҳужжатнинг ноёб рақамини киритиб ёки мобил телефон ёрдамида QR- кодни сканер қилиш орқали текшириш мумкин.

9730

